

Jabborov Diyorbek Baxodirovich
Denov tuman 80-maktab 11-sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tilimizdagi nutqda o'zgaruvchi undoshlar haqida va ularning ishlatilishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Nazariy matn, o'zgaruvchi undoshlar, adabiy til, og'zaki nutq, imlo, talaffuz va imlo, imloni tartibga solish lug'atlarda meyorlashtirish.

Nazariy matn

Adabiy tilda barcha so'zlar aytilganidek yozilsa edi, bir so'zning o'zini ham turlicha yozishga to'g'ri kelar, natijada imloni tartibga solib bo'lmas, savodsizlik kuchayib ketar edi. Shuning uchun amaldagi talaffuz va imlo qoidalariga ko'ra ayrim undoshlarning ham talaffuzi va imlosi mos farq qiladi. Og'zakinutq- da ayrim undosh harflar yozilganidan boshqacha talaffuz qilinadi: masxara- boz-masxaravoz, shanba-shamba, pedagog-pedagok. Og'zaki nutqdagi ixti- sod, shoshilib, ketti so'zlarini iqtisod, shoshilib, ketdi shaklida yozish lozim. Bu talaffuz, albatta, noto'g'riemas. Ammo imlodagi so'zlardagi bu undoshlarning qanday yozilishi imlo qoidalari va lug'atlarda me'yorlashtirilgan.

SABRLIGA TOLE YOR

Odob xazinasini yuragiga joylagan bir yigit bor edi. U o'z baxtini topolmay, bir necha vaqt sarson-sargardonlikda yurdi. Nihoyat, baxti chopib, saroy vazir- laridan birining xizmatiga kirdi. Afsuski, bu xonadon ahli yigitga adolatsiz muno- sabatda bo'lardi. Qiyinchilik azobiga qanchalik bardosh bermasin, biror foyda ko'rmadi. Qorong'i tunlami esa og'ir xayollar bilan o'tkazdi.

Kunlardan bir kun bog'da sayr qilib yurgan Anushervon o'z mulozimlaridan: „Eng muloyim narsa nima?“ - deb so'radi. Birov: „Momiq“, - deb javob berdi. Birov: „Tovuq patlari“, - dedi. Yana birov: „Shoyidan muloyimroq narsa nima bo'lishi mumkin?“ - dedi. Shu paytda haligi yigit saroyga yaqin yerda ish- layotgan edi. U mulozimlarning javobidan Anushervonning ko'ngli to'lmaganini ko'rib, so'zlashga ruxsat so'radi. Ijzat bo'lgach, dedi:

- Eng muloyim narsa tinchlikdir.

Anushervon javobdan qoniqdi va yana so'radi:

- Inson qalbiga nima huzur bag'ishlaydi?

- Muruwat va shafqat, - javob berdi yigit.

Yana savol berdi:

- Qachon xotirjamlikka erishish mumkin?

- Sabr va qanoat bilan.

- Gullarning ichida eng xushbo'yi qaysi?

- Ota-ona tirikligida ulami xursand qiladigan, vafotlaridan keyin esa ular- ning nomlarini boqiyilashtiradigan hayot guli bo'lmish - farzand“, - deb javob berdi yigit.

Anushervon yigitni taqdirladi va o'z vazirlari qatoriga oldi.

Darhaqiqat, bir olim shunday degan ekan: „Tabiatiningizda sabr-qanoat qanday namoyon bo‘lishini bilasizmi? Faqat hayot go‘zalligini ko‘ra oladigan ko‘zlaringiz, yomonliklarni kechira oladigan ko‘nglingiz, yaxshiliklar haqida tafakkur qiladigan aqlingiz, orzularingizni izhor qila oladigan qalbingiz borligi sizdagi shukronalik va sabmning mujassamidir“. („Hikoyalar_sarasi“ telegram kanalidan) mashq. Matn yuzasidan topshiriqlar.

Yuqoridagi matnga bir nazar tashlasak va u yerda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga qaraylik :

Odob – so‘zi yozma holatda qo‘llanilayotgan paytda odob deb yuritiladi ammo biz bu so‘zni og‘zaki holatda ishlatayotgan paytimizda biz odop deya talaffuz qilmiz .

Odob (arabcha — „adab“ so‘zining ko‘pligi) — jamiyatda e’tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma’naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o‘zгалar bilan munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo‘ladi. Odob negizida axloqning ba’zi tamoyil va me’yorlari, shuningdek, maqsadga muvofikdik va go‘zallik (estetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o‘zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo‘sinda muomala qilishi, o‘z turmushi, bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo‘lishi lozimligiga tegishli qoidalar (mas, sharm-xayo, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik singarilar)ni o‘z ichiga oladi. Insonning diniy e’tiqodi uning odobli bo‘lib kamol topishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Odob ta’limtarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi

Tovuq – so‘zini olsak bu so‘z ham yozma holatda tovuq deya yoziladi lekin og‘zaki holatda ishlatayotganimizda biz uni tovuq deya talaffuz qilamiz

Tovuq, uy tovuqlari — tovuqsimonlar turkumiga mansub parranda, qishloq xo‘jaligi. parrandalarining eng ko‘p tarqalgan turi. 5 ming yil muqaddam Hindistonda qo‘lga o‘rgatilgan yovvoyi bankiv tovuq‘idan tarqalgan. Tovuqlarning o‘ziga xos xususiyati — boshlarida qizg‘ish toji, quloq solinchagi, oyoklari (xo‘rozlarida) pixining mavjudligidadir. Patlarining rangi har xil, ko‘pincha, oq. Ko‘pchilik Tovuq zotlarining tumshugi va oyoq kafti sariq, qisman oqqizg‘ish, qora va boshqa bo‘ladi. Tuxum po‘chog‘i oq yoki och qo‘ng‘ir.

Biz bunga o‘xshash o‘nlab misolarni yuqorida ko‘rishimiz mumkin . Bu kabi so‘zlardan og‘zaki nutqimizda ko‘p foydalanamiz . Biroq biz ularni talaffuz qilganimiz kabi yozsak imlodan bir nechta xatolarga yo‘l qo‘yishimiz mumkin .

Misolalar :

Afv – avf

Shafqat – shavqat

Beshik – beshk



Loyiq – loyq

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Umumiy o'rta talim maktablarining 11-sinf (2-qism) uvhun darslik
2. Uhttps://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifaz.wikipedia.org